

**KUZGI JAVDAR NS-SAVO NAVINING KELIB CHIQISHI,
SISTEMATIKASI. XORAZM VILOYATI TUPROQ SHAROITIDA EKISH
MUDDATLARI VA AGROTEXNOLOGIYASI.**

**ORIGIN AND SYSTEMATICS OF THE WINTER RYE VARIETY NS-
SAVO. SOWING TIMES AND AGROTECHNOLOGY IN THE SOIL
CONDITIONS OF THE KHORESM REGION.**

Bekberganova Ozoda Xikmatullayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti

Yer yuzida aholi sonining yildan yilga keskin ortishi, sun'iy oziq maxsulotlari va biotexnologiyaning oziq-ovqat sanoatiga kirib kelishi natijasida insonlar orasida oziq-ovqat tanqisligining oshishi va buning natijasida yangi kasalliklar vujudga kelishiga ko'paymoqda. Muammoni hal qilish uchun ko'pchilik davlatlarda qishloq xo'jalik maxsulotlari orasida sifatli va to'yimli, ekologik jihatdan sof-toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish kabi global muammolar avj olmoqda. Aksariyat aholi o'rtasida, oziq-ovqat maxsulotlari orasida asosiy o'rinni don va don maxsulotlari egallaydi. Don va don maxsulotlari orasida esa bugungi kunda to'yimliliigi va parxezbopligi bilan javdar o'simligi beqiyos ahamiyatga egadir. Shu sababdan xar bir mitaqaning tuproq iqlim sharoitiga mos, atrof-muhitning noqulay sharoitiga chidamli kuzgi javdar navlarini yetishtirishning zamonaviy texnologiyalari, hosildorligi va don sifati mukammal navlarni yaratish va ishlab chiqish muhimdir.

Mamlakatimizning turli tuproq va iqlim sharoitlarida kuzgi javdar o'simligini yetishtirish, nav tanlash va ulardan yuqori va sifatli hosil olish borasida maqbul ekish muddatlari va me'yorlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonida noan'anaviy boshqoqli don ekinlarini



yangi avlod navlarini yaratish va yetishtirish agrotexnikalarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, Xorazm vohasi tuproq-iqlim sharoitiga kuzgi javdar *Ns-Savo* navini o'rganish, uni mahalliyashtirish va javdardan sug'oriladigan sharoitda yuqori hosildorlikka va don sifati bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishishda mahalliy sharoitda yetishtirish va ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

H.Rolf va J. Schlegelning javdar tarixi bo'yicha aniqlagan ma'lumotlariga ko'ra, javdarning eng kuchli tomoni — uning ekstremal sovuqqa chidamliligidir. Chunki, bug'doy nobud bo'ladigan Skandinaviya, Sibir va Shimoliy Yevropa hududlarida javdar asosiy ekin sifatida o'z o'rnini topgan. 1920-yillardagi ilmiy tajribalar javdarning shimoliy kengliklarda o'z sifatini yo'qotmay yetishishini isbotladi. Javdar Sharqiy Yevropadan (Rossiya hududlaridan) slavyanlar orqali G'arbga — Germaniya va Polshaga o'tgan. Qadimgi dunyo olimlari (Pliniy, Galen) uni turlicha nomlar bilan tilga olishgan. Osiyoda esa u O'rta Sharqdan Xitoyga, keyinchalik Yaponiyaga qadar yetib borgan. XVI–XVII asrlarga kelib, yevropaliklar javdarni Amerika qit'asiga olib o'tishdi. Hozirgi kunda u asosan yem-xashak va non mahsulotlari uchun yetishtiriladi. Karl Linney 1753-yilda unga rasmiy “*Secale cereale L*” ilmiy nomini berib, uning biologik klassifikatsiyasini yakunlagan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, javdar yovvoyi holda paydo bo'lib, o'zining chidamliligi evaziga butun shimoliy yarim sharni zabt etgan va insoniyat oziq-ovqat zaxirasida strategik o'rin egallagan noyob dondir.[8]

K.Behre so'ngi yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarda kuzgi javdarning neolit davridanoq ma'daniylashtirilganini va Markaziy Yevropaga begona o't sifatida ko'chib o'tganini, javdarning ekin sifatida rivojlanishi Rimgacha bo'lgan temir davrida mustaqil ravishda sodir bo'lgan va o'rta asrlarda intensiv yetishtirish kengayganligini o'rgangan.[7]

Olingan ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytishimiz mumkinki, *NS Savo* navi biologik jihatdan madaniy javdar turiga mansub boshqoli donli ekin hisoblanadi. Sistematik (1-jadval) o'rnini ko'radigan bo'lsak *NS Savo* navi Bug'doydoshlar-Poaceae oilasi, Tritikali-Triticeae qabilasi, Javdar-*Secale L.* turkumiga mansub.



1-jadval

№	Sistematik birlik	Nomlari	Lotincha nomlari
1	Dunyo (Regnum)	O'simliklar dunyosi	Plantae
2	Bo'lim(Divisio)	Gulli o'simliklar	Magnoliophyta
3	Sinf (Classis)	Bir urug'pallalilar	Liliopsida
4	Oila (Familia)	Bug'doydoshlar	Poaceae (Gramineae)
5	Qabila (Tribus)	Tritikali	Triticeae
6	Turkum(Genus)	Javdar	Secale L.
7	Tur (Species)	Ekma javdar	Secale cereal L.
8	Nav	NS Savo	NS Savo

Ilmiy manbalarda *Secale cereal L.* turning bir nechta kenja turlari mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular orasida subsp.cereale madaniy ekiladigan asosiy donli ekin hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan kenja turlarning barchasi yuqori hosildorlik, genetik barqarorlik va ekologik moslashuvchanlik xususiyatlariga ega turlar hisoblanadi.

Shu sababdan ushbu NS Savo navini Xorazm sharoitida ekish agrotexnikalarini ishlab chiqish, navning biologik xususiyatlari va hosildorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

“Ns-Savo” navi.

Kelib chiqishi: Ns Savo (Novi Sad Savo) navi jahon donchilik seleksiyasining eng nufuzli markazlaridan biri - Serbiya (Novi Sad) dehqonchilik va sabzavotchilik instituti mutaxasislari tomonidan yaratilgan. Ushbu navning yaratilish tarixi o‘simliklarning turli ekologik sharoitlarga moslashuvchanligini oshirish va genetik salohiyatini birlashtirishga qaratilgan uzoq yillik tadqiqotlar natijasidir.

Ns Savo navi seleksioner olimlar tomonidan turli liniyalarni duragaylash orqali olingan bo‘lib, jumladan Petkus (Germaniya) liniyasidan poya mustahkamligini ya‘ni boshqa navlarga qaraganda yotib qolishga 8-9,0 balli chidamlilik genini olgan. Ikkinchi liniya Harkovskaya (Ukraina) dan qishga chidamlilik ya‘ni -25°C gacha bardosh berish genini hamda uchinchi liniya mahalliy serb navlaridan qurg‘oqchilikka chidamlilik ya‘ni suv tanqisligi 25 % bo‘lganda ham o‘sa olish xususiyatiga ega. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki nav uch xil liniya qo‘shilishidan kelib chiqqan va har bir liniyaning ma‘lum bir xususiyatlarini o‘zida mujassam qilgan.

Nav mualliflari:

1.S.Denchich professor, Novi Sad instituti donli ekinlar bo‘limining yetakchi olimlaridan biri. U ko‘plab serhosil navlarning, jumladan NS turkumidagi javdar navlarining bosh muallifi va g‘oya muallifi hisoblanadi.

2. N.Mladenov professor, don sifatini yaxshilash va ekinlarning iqlimiy o‘zgarishlarga chidamliligini oshirish bo‘yicha mutaxasis. U “Savo” navining aynan qurg‘oqchil hududlarga moslashish mexanizmlari ustida ishlagan.

3.V.Momsilovich arpa va javdar seleksiyasi bo‘yicha mutaxasis bo‘lib Ns Savo navini yaratish jarayonida dala sinovlari va genetik tahlillarni boshqargan.

Hosildorlik ko‘rsatkichlari: Ns Savo navi intensiv turdagi nav bo‘lib, u optimal namlik va oziqlantirish sharoitlarida yuqori hosil berish uchun mo‘ljallangan gibrid navdir. Biroq, uning asosiy afzalligi noqulay (suv tanqisligi) sharoitlarida ham hosildorlikning pasayib ketmasligi, gektariga 40-65 sentner, poyalash koeffitsienti (bitta tupdan o‘sib chiqqan mahsuldor poyalar) 3,5-5,0 ta ga, 1000 dona don vazni 27,0-32,0 g ga va bitta boshqadagi don soni taxminan 44-56 gacha ekanligi o‘lchovlar asosida aniqlangan. Navni ekish vaqti mintaqa uchun maqbul muddatda o‘tkaziladi.



Ekish meyori: Tadqiqotimizda ekish me'yorining o'simlik oziqlanish maydoniga ta'siri o'rganildi. Ma'lumki, urug' sarfi haddan ziyod yuqori bo'lganda o'simliklararo raqobat kuchayadi, natijada poyalar ingichkalashib, yotib qolishga moyillik ortadi. Aksincha, me'yor past bo'lganda maydon siyrak bo'lib, begona o'tlar bosishi va namlikning besamar bug'lanishi kuzatiladi. NS Savo navi biologik xususiyatiga ko'ra, qishlashga qadar 3-4 ta mahsuldor poya hosil qilishi uchun ekish muddatini to'g'ri tanlash muhim. Oktyabr oyining ikkinchi va uchinchi o'n kunligi. Bu vaqtda tuproq harorati 11-15 °C atrofida bo'lib, urug'larning 6-7 kunda to'liq unib chiqishini ta'minlaydi. Tuproq tarkibiga qarab 3-5 sm. Og'ir tuproqlarda 3-4 sm, yengil qumloq tuproqlarda esa 5-6 sm chuqurlikda ekish tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi javdarni yetishtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari qisman amalga oshirilgan. Shularni inobatga olib biz o'z ilmiy tadqiqot ishlarimizda Xorazm viloyati sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarida yetishtiriladigan kuzgi javdar navlarining agrotexnologik xususiyatlarini o'rganish, mos navlarni tanlash, uni mahalliyashtirish va hosildorlik hamda don sifati bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishish va ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Atabayeva H., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. «Mehnat». 2000. 272 b.
2. Boboxo'jayev I., Uzoqov P. Tuproqshunoslik. Toshkent. «Mehnat» 1995.512 b.
3. Yormatova D., Dala ekinlar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi, T., 2000.
4. R.Artikova, S.Murodova. "Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi." Toshkent-2010-y 5.
K.E Behre .The history of rye cultivation in europe,
<https://doi.org/10.1007/bf00191554>
6. H. J.Rolf , Schlegel. RYE Genetics, Breeding, and Cultivation. Visit the Taylor & Francis Web site at <http://www.taylorandfrancis.com>